

**Foyda solig'ini korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini
baholashga uslubiy yondashuvlar**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi PhD

D.J.Babajanov

Annotasiya. Mazkur maqola foyda solig'i bilan bog'liq soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga bag'ishlangan. Foyda solig'i davlat uchun muhim daromad manbai bo'lib, samarali soliq ma'muriyatchiligi byudjet daromadlarini samarali yig'ish va soliq to'lovchilar tomonidan rioya etilishini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ushbu tahlil jarayonni soddalashtirish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirish va tadbirkorlik sub'ektlari uchun yanada qulay muhit yaratish maqsadida takomillashtirilishi mumkin bo'lgan soliq ma'muriyatchiligining turli jihatlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: soliq, foyda solig'i, soliq tushumlari, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikasiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, soliq munosatlari, soliq siyosati, davlat byudjeti, soliq ma'muriyatchiligi, soliq yuki.

Kirish.

Uzoq yillar davomida foyda solig'i byudjet soliq daromadlarining ahamiyatli qismini shakllantirib, tashkilotlarning rivojlanishida muhim tartibga soluvchi rolni o'ynaydi". Jahon iqtisodiyotida huquqiy jihatdan shakllantirilgan korporativ soliq stavkalari korporatsiyalar duch keladigan asosiy soliq stavkasi hisoblanib, bu yuridiksiyalarni hisobga olgan holda va vaqt o'tishi bilan korporatsiyalar uchun standart soliq stavkalarini taqqoslash uchun qo'llanilishi mumkinligini anglatadi.

Davlat soliq xizmati organlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning prognoz parametrlarini hisobga olgan holda, foyda solig'ini mahalliy budjetga tushumlarini hisoblash O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Mahalliy budjetiga soliq tushumlarini prognozlashtirish bir necha hisoblash

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

usullari yordamida amalga oshiriladi. Mazkur tavsiya etilayotgan usullar, qonunchilikka muvofiq, mahalliy budjetlarning daromadlari prognozini ishlab chiqishda, aniqlashtirishda qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Davlat budjeti daromadlarini prognozlashtirishning asosiy tamoyillari bo'lib "to'liqlik tamoyili" – O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari to'liq holda prognozlashtiriladi, "asoslanganlik tamoyili" – davlat budjeti daromadlari har bir turi qonunchilik hamda boshqa asoslarga ko'ra hisob-kitoblardan kelib chiqqan holda prognozlashtiriladi, "birlik tamoyili" – davlat budjeti daromadlari har bir hudud bo'yicha prognozlashtirish asoslaridan kelib chiqqan holda birxil yondashuv asosida prognozlashtiriladi, "ehtiyotkorlik tamoyili" – davlat budjeti daromadlari, qoida tariqasida, tavakkalchiliklar oqibatlarini minimallashtirish maqsadida, pessimistik yondashuv asosida prognozlashtiriladi.

Daromadlar bazasi, shu jumladan, uning komponentlari shu bazaning YAIM o'sishiga nisbatan oldingi o'rta muddatdagi elastikligi, YAIMdagi ulushi saqlanib qolishi, soliq-bojxona, fiskal siyosatning tadbirlari prognozi, vazirlik, idoralarning ma'lumotlari, bazaga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar prognozi kabi ko'rsatkichlardan foydalangan holda aniqlanadi.

Foyda solig'ini korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga ta'sirini baholashda soliqni hisoblash tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

$$F_{SS} = \sum_{i=1}^n Kf * Fk * Fsp * o'k - Nd + Im$$
$$+ \sum_{i=1}^n QDY * DF * o's - dfs + Tim$$
$$+ \sum_{i=1}^n Kqd * no's * Nss - Im + Qd$$

F_{SS} tegishli tarmoq uchun foyda solig'i stavkasi

It – iqtisodiyot tarmoqlari

Kf – soliq to'lovchilarning joriy yilda kutilayotgan foydasi

Fk – soliq solish bazasini aniqlash uchun tarmoq bo'yicha o'rtacha

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

shakllangan foydaga nisbatan qoʻllaniladigan koeffitsientlar

Fsp foyda soligʻi prognozi

–

oʻk – tegishli tarmoq boʻyicha foydaning hisoblab chiqarilgan oʻsish koeffitsienti

Nd – tegishli tarmoq boʻyicha norezidentlarning respublikadagi olayotgan daromadlari

Im – tegishli tarmoq boʻyicha imtiyozlar miqdori

QDY konsepsiya shartlariga koʻra tegishli tarmoq boʻyicha kutilayotgan qoʻshimcha daromad yoki yoʻqotish

–

DF tegishli tarmoq boʻyicha dividendlar va foizlarning kutilayotgan miqdori

–

oʻs – dividend va foizlar boʻyicha hisoblab chiqarilgan oʻsish stavkasi

dfs – dividend va foizlar boʻyicha soliq stavkasi

Tim tegishli tarmoq boʻyicha imtiyozlar miqdori

–

Kqd konsepsiya shartlariga koʻra tegishli tarmoq boʻyicha kutilayotgan qoʻshimcha daromad yoki yoʻqotish

Noʻs tegishli tarmoq boʻyicha norezidentlar daromadlarining hisoblab chiqilgan oʻsishi surʼati

–

Nss norezidentlar daromadlari uchun soliq stavkasi

–

Im – norezidentlar daromadlaridan soliq boʻyicha imtiyozlar miqdori

Qd konsepsiya shartlariga koʻra qoʻshimcha daromad yoki yoʻqotish

–

Makroiqtisodiy koʻrsatkichlar va oʻrtacha samarali stavka asosida formula boʻyicha:

$$T_B = Z * S$$

$$S = P_1 / Z_1 * 100\%,$$

bu yerda:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

T_B – qonunchilik hujjatlarida joriy yil bo'yicha daromadlar tushumlari bahosi;

Z – joriy yil bahosi bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning parametrlari;

S – hisobot yili uchun o'rtacha samarali stavka, %;

P_1 – hisobot davrida soliqlarning haqiqiy tushumlari;

Z_1 – hisobot davri uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning parametrlari.

Foyda solig'i tushumlari prognozida quyidagilar hisobga olinadi:

- navbatdagi moliya yili va rejalashtirish davri uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognoz ko'rsatkichlari;

- o'tgan davrlar uchun foyda solig'i bo'yicha soliq bazasi, hisoblangan summalar va haqiqiy tushumlar dinamikasi;

- boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va Soliq kodeksining 337, 353-moddalarida nazarda tutilgan soliq stavkalari, 337-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar. Foyda solig'i bo'yicha tushumlarning yalpi hajmi prognozini hisoblash har bir daromad turi bo'yicha, Soliq kodeksining 297-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini hisobga olmasdan, alohida-alohida amalga oshiriladi. Foyda solig'i Soliq kodeksida belgilangan tegishli stavkalar bo'yicha hisoblab chiqariladi. Foyda solig'ining jami summasi (**Foyda Soliq**) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{Foyda_{Soliq}} = \mathbf{Foyda_1} + \mathbf{Foyda_2} + \mathbf{Foyda_3} + \dots + \mathbf{Foyda_n},$$

bu yerda:

Foyda Soliq – foyda solig'ining jami summasi;

Foyda₁ + Foyda₂ + Foyda₃ + ... Foyda_n – Soliq kodeksining 297-moddasiga muvofiq, tegishli faoliyat turlari bo'yicha olingan daromadlar manbalari turlari bo'yicha foyda solig'i summasi.

Tegishli stavkalar bo'yicha foyda solig'i tushumlarining prognoz hajmini hisoblash (**Foyda Soliq**) to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usuli asosida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\mathbf{Foyda_{Soliq}} = (\mathbf{V_{tax\ base.}} \times \mathbf{S}) \times \mathbf{K_{yig'.daraj.}} + (\mathbf{P_{qayta\ hisob.}} \times \mathbf{K_{yig'.daraj.}}) + \mathbf{K_{audit}} - \mathbf{V_{imtiyoz}},$$

bu yerda:

V_{tax base.} – tegishli stavka bo'yicha foyda solig'ini hisoblash uchun soliq bazasi summasi;

S – soliq stavkasi, %;

K_{yig'.daraj} – oldingi davrlarda hosil bo'lgan ushbu soliq turi bo'yicha yig'uvchanlik ko'rsatkichi dinamikasini hisobga olgan holda yig'uvchanlikning hisob-kitob darajasi, soliq bo'yicha kreditorlik va debitorlik qarzlarni qoplash bo'yicha ishlarni hisobga oladi, %.

Yig'uvchanlikning hisob-kitob darajasi 1-N hisobot ma'lumotlariga muvofiq soliq statistikasi ma'lumotlari asosida kelib tushgan soliq summasini hisoblangan soliq summasiga bo'lishdan olingan hosila sifatida aniqlanadi.

P_{qayta hisob.} – yillik qayta hisob-kitoblar bo'yicha soliq summasi;

K_{audit} – soliq statistikasi ma'lumotlari ko'rsatkichlari dinamikasi asosida nazorat ishlari natijalari bo'yicha tushumlar summasi;

V_{imtiyoz} – tashkilotlarga Soliq kodeksida va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan imtiyozlar va preferensiyalar berilishi munosabati bilan kelib tushmagan foyda solig'i summasi.

Foyda solig'ini asosiy stavka bo'yicha hisoblash uchun (**V_{tax base.}**) soliq bazasi summasini aniqlash maqsadida quyidagilar aniqlanadi:

- ushbu nisbatni saqlab, keyingi yillar uchun soliqqa tortish uchun foyda miqdori hisoblab chiqiladi;

- soliq solish maqsadlari uchun foyda qonunchilik bilan belgilangan tartibga muvofiq soliq bazasini aniqlashda hisobga olinmaydigan foyda summasiga, shuningdek, soliq bazasini kamaytirishda hisobga olinadigan zararlar summasiga kamaytiriladi, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha soliq bazasiga oshiriladi.

Foyda solig'i tushumlarining prognoz hajmini hisoblashda to'g'ridan-to'g'ri hisoblash usuli yordamida prognoz qilish metodologiyasiga kiritilmagan (masalan, YAHM) boshqa hisoblash ko'rsatkichlaridan foydalanish mumkin. Foyda solig'i bo'yicha prognoz summasi quyidagi usullar bilan

aniqlanadi:

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozining yalpi qo‘shilgan qiymati (keyingi o‘rinlarda - YAQQ) hajmi asosida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i tushumlari prognozi hisob-kitobiga muvofiq soliqning o‘rtacha samarali stavkasi foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti shakllari yig‘ma ma’lumotlari asosida quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:

$$\mathbf{Foyda}_p = (\mathbf{YaQQ}_p * \mathbf{F}_{\text{samarali}}) + \mathbf{S}_{\text{ma'mur.}}$$

$$\mathbf{F}_{\text{samarali}} = \mathbf{R}_B / \mathbf{YaQQ}_h * 100$$

$$\mathbf{F}_{\text{samarali}} = \mathbf{YaQQ}_h * \mathbf{F}_{\text{samara stav}}$$

$$\mathbf{F}_{\text{samara stav}} = \mathbf{P}_{\text{samara stav.}} / \mathbf{V}_{\text{samara stav.}} * 100, \text{ bu yerda:}$$

Foyda_p – foyda solig‘ining prognoz summasi;

YaQQ_p – YAQQning prognoz hajmi;

F_{samarali} – joriy yil bo‘yicha foyda solig‘i tushumlarini baholash bo‘yicha o‘rtacha samarali stavka, %;

S_{ma'mur.} – soliq ma‘muriyatchiligi (YAQQga nisbatan %da);

Foyda_b – qonunchilik hujjatlarida joriy yil bo‘yicha foyda solig‘i tushumlarini baholash;

YAQQ_h – joriy yilga baholash bo‘yicha YAQQ hajmi;

F_{samara stav.} – hisobot davrida o‘rtacha samarali stavka, %;

P_{samara stav.} – hisobot davrida foyda solig‘ining haqiqiy tushumlari;

V_{samara stav.} – hisobot davrida YAQQ hajmi.

Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha soliqning hisoblab chiqarilgan va to‘langan summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$\mathbf{Foyda}_p = (\mathbf{Foyda}_{\text{yst}} + \mathbf{Foyda}_{\text{stb}}) * \mathbf{V}_{\text{yaqq}}$$

bu yerda:

Foyda_p – foyda solig‘ining prognoz summasi;

Foyda_{yst} – joriy yilda yirik soliq to‘lovchilardan soliq tushumlarini baholash;

Foyda_{stb} – joriy yil bo‘yicha qolgan soliq to‘lovchilardan tushumlarni baholash;

V_{yaqq} – YAQQning prognoz qilingan o‘*sish sur’ati*, %;

bunda,

$$\mathbf{Foyda}_b = \mathbf{Foyda}_{\text{yst}} + \mathbf{Foyda}_{\text{stb}}$$

$$\mathbf{Foyda}_{\text{yst}} = \mathbf{Foyda}_b (\text{his.yst}) / U_{\text{his.yst}} * 100$$

$$U_{\text{his.yst}} = \mathbf{Foyda}_o (\text{his.yst}) / \mathbf{Foyda}_{\text{his.yst}} * 100$$

$$\mathbf{Foyda}_{\text{stb}} = \mathbf{Foyda}_b (\text{his.sts}) / U_{\text{his.sts}} * 100$$

$U_{\text{his.sts}}$ = $\mathbf{Foyda}_o (\text{his.sts}) / \mathbf{Foyda}_{\text{his.yst}} * 100$, bu yerda:

\mathbf{Foyda}_b – *qonunchilik hujjatlarida joriy yil bo‘yicha yirik soliq to‘lovchilardan tushumlarni baholash;*

$\mathbf{Foyda}_{\text{yst}}$ – *joriy yil bo‘yicha yirik soliq to‘lovchilardan tushumlarni baholash;*

$\mathbf{Foyda}_{\text{stb}}$ – *joriy yil bo‘yicha qolgan soliq to‘lovchilardan tushumlarni baholash;*

$\mathbf{Foyda}_b (\text{his.yst})$ – *joriy yilning ma‘lum davri uchun yirik soliq to‘lovchilardan soliqning hisoblangan summasi;*

$U_{\text{his.yst}}$ – *hisobot yilidagi xuddi shu hisobot davridagi yirik soliq to‘lovchilar uchun hisoblangan summalarning ulushi, %;*

$\mathbf{Foyda}_o (\text{his.yst})$ – *hisobot yilidagi xuddi shu hisobot davridagi yirik soliq to‘lovchilar uchun hisoblangan summa;*

$\mathbf{Foyda}_{\text{his.yst}}$ – *hisobot yili uchun yirik soliq to‘lovchilar uchun hisoblangan summa;*

$\mathbf{Foyda}_b (\text{his.sts})$ – *hisobot yilidagi xuddi shu hisobot davridagi qolgan soliq to‘lovchilar uchun hisoblangan summa;*

$U_{\text{his.sts}}$ – *hisobot yilidagi xuddi shu hisobot davrida qolgan soliq to‘lovchilar uchun to‘langan summalarning ulushi, %;*

$\mathbf{Foyda}_o (\text{his.sts})$ – *hisobot yilidagi xuddi shu hisobot davridagi qolgan soliq to‘lovchilar tomonidan soliqning to‘langan summasi;*

$\mathbf{Foyda}_{\text{his.yst}}$ – *hisobot yili uchun qolgan soliq to‘lovchilar tomonidan soliqning to‘langan summasi.*

Soliq solishning maxsus rejimini qo‘llash munosabati bilan to‘lanadigan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

aylanmadan olinadigan soliqni hisob-kitob qilish uchun quyidagilar qo'llaniladi:

- navbatdagi moliya yili va rejalashtirish davri uchun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognoz ko'rsatkichlari;

- o'tgan davrlar uchun aylanmadan olinadigan soliqning soliq bazasi, hisoblangan summalar va haqiqiy tushumlar dinamikasi;

- Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliq stavkalari, imtiyozlar va preferensiyalar.

Fikrimizcha, foyda solig'i bo'yicha 2020-yil uchun belgilangan stavkalar foyda solig'i tushumining yanada ortishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Foyda solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish tahlili bo'yicha takliflar Aniqlikni oshirish va noaniqlikni kamaytirish uchun foyda solig'i qonunlari va qoidalarining murakkab qoidalarini ko'rib chiqing va soddalashtiring. Keraksiz byurokratik tartib-qoidalarni bartaraf etish va soliq to'lash va hisobot berish talablarini soddalashtirish lozim.

Adabiyotlar/Литература/Reference:

Mardiasmo D. (2013) Taxation, Publisher Andi, Revision Edition, – p. 55.

Maxmudova, N. J. (2020). Theoretical foundations of risk management in large corporate structures. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 83-88.

Tashmuradov T. (2004) Soliq nazariyasi va tizimi. Darslik. –T.: Bilim,. -320 б.

Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.